



XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 18-dekabr

VII-2-013-11-155-K/24

Dang‘ara tumani

2024-yil davomida Dang‘ara tumanida “Ayollar daftari”yurituv natijalari va mazkur jamg‘arma hisobidagi mablag‘lardan oqilona va maqsadli foydalanish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari M.Azizovning hisoboti to‘g‘risida

Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz , ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan “Ayollar daftari”ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy - huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-mart kungi 145-sonli qarori qabul qilingan. Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali ishlarni davom ettirish, bu borada mas‘ullar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2024-yil davomida Dang‘ara tumanida “Ayollar daftari” yurituv natijalari va mazkur jamg‘arma hisobidagi mablag‘lardan oqilona va maqsadli foydalanish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i M.Azizovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Dang‘ara tumani hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi (M.Azizova) -tegishli mutasaddilar bilan birgalikda:
 - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-aprel kungi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-sonli qarori hamda qaror bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida ish tashkil etib borish;

- “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan jami 5190 nafaridan 5190 nafariga (100%) amaliy yordam ko‘rsatilganligi inobatga olinsin;
 - “Ayollar daftari”ga kiritilayotgan hamda “Ayollar daftari”dan chiqarilayotgan xotin-qizlar haqidagi ma’lumotlarni barcha mas’ullar tomonidan tasdiqlangan holda xalq deputatlari tuman Kengashiga belgilangan muddatlarda taqdim etib borish vazifalar yuklatilsin.
- 3.** Tuman hokimligi Axborot xizmati (U.Usmonov) va “Dang‘ara” gazetasi (O‘.Akbarova)ga:
- mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha media materiallar tayyorlab, OAVda keng yoritib borish tavsiya etilsin.
- 4.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyasi (N.Mahkamov) zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH